

MAVZU: “MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA O’YINLAR: IJODIY HAMDA QOIDALI O’YINLARNING TARBIYAVIY ROLI”

Muradova Zamira Erkinovna

*Toshkent shahar Chilonzor tumani
tasarrufidagi 284-davlat maktabgacha ta'lim
tashkilotida direktor orinbosari*

Аннотатсия

Maqolada maktabgacha ta’limda o’yinlarning pedagogik roli, ularning bolalarning ijtimoiy, aqliy va hissiy rivojlanishiga ta’siri o’rganilgan. Ijodiy va qoidali o’yinlarning farqlari, ularning tashkil etilishi va tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, o’yinlar orqali bolalarning mustaqilligi, fikrlash qobiliyati, jamoadagi o’zaro munosabatlari va maktabga tayyorgarligi rivojlantirilishi haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Maktabgacha ta’lim, o’yinlar, ijodiy o’yinlar, qoidali o’yinlar, bolalar rivojlanishi, tarbiyaviy ahamiyat

Аннотация

В статье рассматривается педагогическая роль игр в дошкольном образовании, их влияние на социальное, умственное и эмоциональное развитие детей. Проанализированы различия между творческими и подчинёнными правилам играми, их организация и воспитательная ценность. Особое внимание уделено развитию самостоятельности, мышления, взаимоотношений в коллективе и подготовке детей к школе через игры.

Ключевые слова: Дошкольное образование, игры, творческие игры, игры с правилами, развитие детей, воспитательная значимость

Abstract

The article explores the pedagogical role of games in preschool education and their impact on children's social, cognitive, and emotional development. It analyzes the differences between creative and rule-based games, their organization, and educational value. The article also emphasizes how games help develop children's independence, thinking skills, social interactions, and school readiness.

Keywords: Preschool education, games, creative games, rule-based games, child development, educational significance

Kirish

Muhtaram prezidentimiz ta'kidlaganlaridik, "Yoshlar kelajagi bilan bog'liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega" yoshlarimiz hayotidagi har bir jarayon biz uchun juda muhimdir. Inson tug'ulgan vaqtdan boshlab qandaydir faoliyatning ishtirokchisi bo'ladi va nimagadir o'zining qiziqishini namoyon eta boshlaydi., Kattalarning o'z o'yinlari bo'lganidek- deb yozadi professor G.Vinogradov,- bolalarning ham o'z o'yinlari bor, ular o'zaro juda ko'p umumiyliklarga ega bo'lsalarda bir birlaridan shunchalik ajralib turadilarki anashu farqlarni o'rganishimiz lozimdir. O'yinlar bolalar beshikdaliklaridayoq hayotlariga kirib boradi. Bordiyu-bordi''shaqildog'u, tutib olaman o'yinlari hali gapirishni ham bilmaydigan bolalarga katta quvonch bag'ishlaydi. Bolalar Ulg'aygan sayin o'yinlari ham shaklan ham mazmunan murakkablashib boradi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolajonlar o'yinlar orqali ilk atrof- olam tasavvurlarini shakllantirib boradilar. O'yin –

maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim berishda muhim yondashuvdir o'yin quvonch keltiradi va bolalarni rag'batlantiradi, ularga yangi ko'nikma va bilimlarni o'rganishga, o'zini va atrofdagi dunyoni bilishga Imkon beradi. Maktabgacha ta'lim bolaning o'yin huquqini tan oladi, o'yinning bola uchun muhimligini va uning individual rivojlanishi, ta'lim olishi va farovonligiga ko'maklashishdagi asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. O'yin bolaning shaxsiyati uning bilish ijtimoiy- hissiy, ijodiy va jismoniy jihatlarini rivojlantiradi. O'inda bolalarning tengdoshlari va pedagogi bilan o'zaro munosabati nutq va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, bunda bolaning tabiatga bo'lgan mehri uyg'onadi, tabiat quynidagi ekalogik tarbiyaga oid o'yin, mehnat faoliyatlari ishtirokchilarining matorikalari borgan sari takomillashtirib boradi. O'yin boshqa bolalar bilan hamkorlikda ta'lim olish imkonini yaratadi, ularga tavakkal qilish, xato qilish va qiyinchiliklarni yingish imkonini beradi. Va eng muhimi, o'yin talim olishni quvonchli qiladi, bolalarning tasavvurini va ijodkorligini rivojlantiradi.

Maktabgacha ta'limda o'yinlar o'z mazmuni va tashkil etilishi va ta'sir ko'rsatishiga qarab ikki katta turkumga bo'linadi.

1. Ijodiy o'yinlar- bu o'yinlar bolalarning o'zlari tomonidan o'ylab topilib bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ijodiy o'yinda bolalarning tevarak atrofdan olgan taassurotlari aks etadi. bunday o'yinlar mustaqil bo'lib bolalarning erkinligi, tashkilotchiligi ijodkorlik qobiliyatlari to'la nomoyon bo'ladi. O'yinda hhayotiy taassurotlar aynan aks ettirilmaydi balki bolalar ongida qayta ishlanib , oyinga tadbqiq etiladi. bola o'z o'yinida borliqni aks ettirib olgan rolining mazmuni bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu hissiyotini boshdan kechiradi. bularga misol qilib „Bolalar bog'chasi“, „Maktab“ kabi o'yinlar bolalarda do'stlik, o'rtoqlik, burch hissi, jamoatchilikning ilk shakllarini rivojlantirib borib kelajakda bolalarning maktab muhitiga tez moslashuvi va ijtimoiylashuv jarayonlari uchun tayyorlab boradi.

2. Qoidali o'yinlar- o'yinning bu turi barcha o'yinlar kabi amaliy faoliyat hisoblanib belgilangan qoidalar asosida tashkil qilinadi va bunda har bir harakat qoidalar asosida boshqarib boriladi. Bunga quydagilar kiradi:

- Didaktik;
- Harakatli;
- Musiqaviy;
- Ermak o'yinlar.

O'yin davomida qoidalarining tog'ri bajarilishi „to'g'ri, yoki noto'g'ri“ o'yin qoidasi buzuldi degan baholar bilan baholanib boriladi.

Bolalar o'yin vaqtida o'z -o'zini nazorat qilishni o'rganib boradilar. Qoidali o'yinlar orqali bolalardagi bir birini nazorat qilish to'g'ri yoki noto'g'ri qilingan ishlarning samarasi nima bilan yakunlanishi haqidagi bilimlari mustahkamlanib boradi. Bola turli o'yinlar orqali dunyoni anglab undagi voqia hodisalarni aynan maktabgacha ta'limda o'rganib borar ekan kelajak avlod hayot yo'llarida duch kelishi mumkin bo'lgan turli muommoli vaziyatlardan oson yechim bilan chiqa olishlarida bevosita ularning bog'chadagi uztozlarining roli beqiyosdir. Bolajonlarga bor mehrini berish bilan birgalikda ularni hayot yo'llariga tayyorlab borishi uchun turli hildagi o'yinlarni tashkillashtirish va har bir bolani chaqqonlikka, uddaburonlikka, topqirlikka undashi va bolalarning bilimli aqlli va ayniqsa ularga quvonch bag'ishlaydigan tomonlarini inobatga olgan holda tashkillashtirishlari talab qilinadi

Olimlarning statistik ma'lumotlariga qaraganda maktabgacha ta'limda tarbiyalangan bola ta'limda ishtirok etmagan bolaga nisbatan bilimlarni juda tez o'zlashtiribgina qolmasdan sakson to'qson foiz bog'cha ta'limida o'zlashtirgan bilimlariga tayanishar ekan.

Xulosa o'rnida shuni ham aytish kerakki har bir bolani maktabgacha ta'limga qamrab olishimiz va boshlang'ich ko'nikmalarini shakllantirib boorish uchun biz ham o'z hissamizni qo'shaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Vygotskiy L.S. **Psixologik rivojlanish nazariyalari.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2003.

Luriya A.R. **Oliy psixik funksiyalar va ularning buzilishi.** – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.

Elkonin D.B. **Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologiyasi.** – Moskva: Prosveshchenie, 1978.

Sharipov O., Islomova G. **Maktabgacha ta’limda o‘yinlar va bolalarning rivojlanishi.** – Toshkent: Fan, 2015.

Bruner J.S. **Bolalar o‘yinlari va ularning rivojlanishdagi roli.** – Moskva: Pedagogika, 1984.